



UDK: 911.2+911.9+796.5

**Komil ISMATULLAYEV,**  
*O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti*  
E-mail: [ismatullayevkomil2201@gmail.com](mailto:ismatullayevkomil2201@gmail.com)  
**Muxriddin AVEZOV,**  
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD*  
E-mail: [muxriddin\\_avezov@mail.ru](mailto:muxriddin_avezov@mail.ru)

*PhD, dotsent Sh.Shomurodova taqrizi asosida*

### TO‘PALANG SUV OMBORIGA TUTASH HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TABIIY GEOGRAFIK IMKONIYATLARI VA EKOLOGIK-IQTISODIY CHEKLOVLARI

Аннотация

Mazkur maqolada To‘palang suv omboriga tutash hududlarda turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari va ekologik-iqtisodiy cheklovlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari hududning tog‘ landshaftlari, suv resurslari va qulay tabiiy sharoitlari turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, antropogen yuk, eroziya jarayonlari, suv sifatining yomonlashuvi hamda infratuzilmaning yetarli rivojlanmagani asosiy cheklovchi omillar sifatida aniqlangan. Maqolada hududda turizmni barqaror rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** To‘palang suv ombori, ekoturizm, rekreatsion turizm, sarguzasht turizmi, barqaror rivojlanish.

### ФИЗИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ЭКОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОГРАНИЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ПРИЛЕГАЮЩИХ ТЕРРИТОРИЯХ К ТУПАЛАНГСКОМУ ВОДОХРАНИЛИЩУ

Аннотация

В данной статье проанализированы природно-географические возможности и эколого-экономические ограничения развития туризма на прилегающих территориях Тупалангского водохранилища. Результаты исследования показали, что горные ландшафты, водные ресурсы и благоприятные природные условия региона создают высокий туристический потенциал. Вместе с тем установлено, что антропогенная нагрузка, эрозионные процессы, ухудшение качества воды и недостаточное развитие инфраструктуры являются основными ограничивающими факторами. В статье также предложены рекомендации по рациональному использованию природных ресурсов и сохранению экологического баланса для обеспечения устойчивого развития туризма в данном регионе.

**Ключевые слова:** Тупалангское водохранилище, экотуризм, рекреационный туризм, приключенческий туризм, устойчивое развитие.

### PHYSICO-GEOGRAPHICAL POSSIBILITIES AND ECOLOGICAL-ECONOMIC CONSTRAINTS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN THE AREAS ADJACENT TO THE TUPALANG RESERVOIR

Annotation

This article analyzes the physical-geographical opportunities and ecological - economic constraints for tourism development in the areas surrounding the Tupalang Reservoir. The research results indicate that the mountainous landscapes, water resources, and favorable natural conditions of the region create significant tourism potential. At the same time, anthropogenic pressure, erosion processes, deterioration of water quality, and insufficient infrastructure development have been identified as the main limiting factors. The article also provides recommendations aimed at the rational use of natural resources and the preservation of ecological balance to ensure sustainable tourism development in the region.

**Keywords:** Tupalang reservoir, ecotourism, recreational tourism, adventure tourism, sustainable development.

**Kirish.** So‘nggi yillarda turizm jahon xo‘jaligining tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ko‘llar va suv omborlari kabi suv havzalari turizmni rivojlantirish uchun yuqori rekreatsion salohiyatga ega tabiiy geografik obyektlar hisoblanadi.

Ular landshaft jozibadorligi, suv bilan bog‘liq rekreatsion faoliyat turlari va mikroiklimni yumshatuvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda hududlarning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi [4; 6; 7; 14]. Biroq suv havzalari atrofida turizmni rivojlantirish ekologik barqarorlik, suv sifati va landshaftlarning saqlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, turistik bosimning ortishi suv havzalari ekotizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin [2]. Shu sababli bu jarayon kompleks geografik va ekologik yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur.

**Tadqiqot obyekti va uning tavsifi.** To‘palang suv ombori – Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida To‘palang daryosi o‘rta oqimida barpo etilgan yirik gidrotexnik inshootdir. Ushbu suv ombori qurilishi 1980-yillar boshida boshlangan bo‘lib, dastlab asosan sug‘orish va gidroenergetika maqsadlariga mo‘ljallangan edi. To‘palang suv omborining loyihadagi suv sig‘imi 500 million kubometrni tashkil etib, 112,9 gektar maydonni suv bilan ta‘minlash imkoniyatiga ega. Ushbu suv ombori dengiz sathidan 880 metr balandlikda joylashgan. Suv ombori to‘g‘onining balandligi 122 metr [1].

So‘nggi yillarda To‘palang suv ombori va uning atrofidagi hududlar nafaqat xo‘jalik, balki turistik salohiyati ham e‘tiborni tortmoqda. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasidagi davlat dasturlarida suv omborlari va tog‘li hududlarda dam olish maskanlarini barpo etish, ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda [8]. Ushbu qaror

natijasida To'palang suv ombori hududida ekoturizm zonasini shakllantirish va zarur infratuzilmani yaratish vazifasi belgilangan. Mazkur maqolada To'palang suv omborining turizm salohiyatiga baho berilib, uning tabiiy geografik imkoniyatlari, mavjud va istiqbolli turizm yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududda barqaror turizmni rivojlantirish yo'lida uchraydigan ekologik, infratuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Suv havzalari, jumladan ko'llar va suv omborlari atrofida turizmni rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda geografiya, turizm va ekologiya fanlari doirasida keng o'rganilmoqda. Bu tadqiqotlarda suv resurslarining rekreatsion imkoniyatlari bilan bir qatorda ularning ekologik barqarorligi va iqlim o'zgarishlariga sezgirligi muhim ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Hall va Page (2014) suv va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tahlil qilib, suv havzalari hududlarida turizm rivojlanishi iqtisodiy foyda bilan birga ekologik yuklamani ham oshirishini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, suv turizmni barqaror rivojlantirishda hududning tabiiy sharoiti, suv sifati hamda landshaftlarning sig'im imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega [6].

Gössling va boshqalar (2012) esa global miqyosdagi tadqiqotlarida turizm obyektlarining suv iste'moli ko'plab hududlarda tabiiy suv balansidan oshib ketayotganini qayd etib, iqlim o'zgarishi sharoitida suv tanqisligi xavfi suvga asoslangan turizm turlarining barqarorligiga jiddiy tahdid solishini ko'rsatadi [5].

Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) hisobotlarida suv havzalari hududlarida turizmni rivojlantirishda integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi muhimligi ta'kidlanib, suv resurslarini muhofaza qilish, rekreatsion foydalanish va mahalliy aholi manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali ekologik barqaror turizmni shakllantirish mumkinligi qayd etilgan [14].

So'nggi yillarda To'palang suv omborining turizm salohiyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ham ortib bormoqda. Xususan, Sh.Ravshanov va boshqalar (2025) tadqiqotida Surxondaryo viloyatining tog'li hududlari, jumladan To'palang suv ombori havzasining ekoturizm resurslari fazoviy tahlil qilingan [10].

**Tahlil va natijalar.** To'palang suv ombori Surxondaryo viloyatining Hisor tog' tizmalariga tutash hududida, dengiz sathidan 880 m balandlikda joylashgan. Hududning orografik xususiyati tog'li bo'lib, chuqur jarlar va daralar bilan ajralgan murakkab relyefga ega. Mazkur tog'lar va tik yonbag'irlar oralig'ida nisbatan meridianal yo'nalgan yer yorig'i joylashgan bo'lib, shu yerdan To'palangdaryo oqib o'tadi. Mazkur daryoning yuqori oqimida to'g'on qurilib, suv ombori barpo etilgan. Suv ombor atrofi "Yuqori To'palang" milliy tabiat bog'i hududiga kiradi – ushbu qo'riqlanadigan hududning umumiy maydoni 27,8 ming gektarni tashkil etadi va u Surxondaryo viloyati markazidan 205 km, Sariosiyo tumani markazidan 45 km uzoqlikda joylashgan [9; 15].

Suv ombori va unga tutash hududlar tabiati xushmanzara, bioxilmaxillik yuqori bo'lib, bu mazkur akvatoriya hamda unga tutash hududlarda turizmning bir nechta turlarini rivojlantirish uchun qulay tabiiy imkoniyat yaratadi. Quyida mazkur turizm turlarining har birini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

**Suv rekreatsion turizmi.** To'palang suv omborining tiniq va toza suvlari hamda tog'lar yonbag'ridagi joylashuvi kabi xususiyatlari suvda dam olish turlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Hozircha suv ombor hududida tashkil etilgan rasmiy dam olish maskanlari ko'p emas, biroq kelgusida suv ombori atrofida plyaj zonalarini, suzish va cho'milish joylari, qayiqda sayr qilish va boshqa suv sporti turlarini yo'lga qo'yilishi uchun qulay imkoniyatlar bor.

Suv havzasida suzish yoki qayiqda sayohat qilish nafaqat maroqli hordiq, balki odamlarning sog'lom bo'lishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, suv omborida baliqchilikni tashkil etish (baliq ovlash festivallari, baliqchilik musobaqalari) imkoniyati ham mavjud bo'lib, akvatoriya suvining tozaligi va ko'plab biologik turlarning mavjudligi bunga zamin yaratadi. Suv rekreatsiyasi bilan birga, sayyohlar uchun katamaranlar, qayiq va gidrosikl kabi vositalarda sayohatlarni taklif etish, maxsus kuzatuv maydonchalari va sohil bo'yi piknik hududlari, fotozonalarni tashkil etish orqali suv ombor dam olish maskaniga aylantirilishi mumkin.

**Ekoturizm.** To'palang suv ombori va uning atrofidagi tog'li hududlar ekoturizm uchun katta salohiyatga ega. Hudud noyob o'simlik va hayvonot dunyosiga boy bo'lib, milliy tabiat bog'i maqomiga ega. Turistlar bu yerda maxsus yo'nalishlar bo'ylab sayr qilish, tog' daralaridagi so'qmoqlarda yurish hamda tabiatni kuzatish imkoniyatiga ega. Hududdagi eng qiziqarli obyektlardan biri – Turmushobod qishlog'i yaqinida joylashgan 2000 yillik archa (Savr daraxti) bo'lib, u milliy tabiat bog'ining ramzlaridan biri hisoblanadi. Ekoturizm doirasida trekking, tog' velosporti va tabiatni o'rganishga qaratilgan ekskursiyalarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ekologik muvozanatni saqlash maqsadida qat'iy qoidalar va cheklovlar joriy etilishi zarur. Hududda kichik mehmon uylari va eko-maskanlar tashkil etish orqali mahalliy aholining turizm jarayoniga jalb qilinishi ijobiy natija berishi mumkin.

**Sarguzasht va ekstremal turizm.** To'palang suv ombori atrofidagi tog'li relyef sarguzasht va ekstremal turizmni rivojlantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi. Bu yerda qish mavsumida tog' chang'isi va snowboard, yozda esa tog' velosporti va kvadratsikllarda sayohatlar tashkil etish mumkin. Shuningdek, paragliding va deltaplanda uchish kabi sport turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu sayyohlarga tog' manzaralarini yuqoridan kuzatish imkonini beradi. Hozirda hududda ekstremal turizmning ayrim ko'rinishlari norasmiy tarzda paydo bo'lgan bo'lib, kelgusida xavfsizlik choralarini ta'minlagan holda rafting, tog' cho'qqilariga chiqish kabi yo'nalishlarni tizimli ravishda rivojlantirish mumkin. Surxondaryo viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, hududdagi g'orlar, sharsharalar va tog' cho'qqilari sarguzasht turizmi uchun muhim resurs hisoblanadi.

Umuman olganda, To'palang suv ombori va unga tutash hududlarda turizmni tashkil etishda relyef, iqlim, gidrografiya va landshaft xilma-xilligini hisobga olish muhimdir. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish jarayonida hududda turistik faoliyatni cheklovchi omillar ham mavjud.



### 1-rasm. To'palang suv omborining atrofida turistik faoliyatni loyihalashtirish xarita-sxemasi

Ekologik cheklorlar. To'palang suv ombori hududi katta turizm salohiyatiga ega bo'lsa-da, u biologik xilma-xilligi yuqori bo'lgan qo'riqlanadigan hudud hisoblanadi. Shu sababli turizm faoliyati ekologik talablarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi zarur. Sayyohlar sonining ortishi chiqindilar ko'payishi, suv va tuproqning ifloslanishi hamda yovvoyi hayvonlar yashash muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qor barsi va qo'ng'ir ayiq kabi noyob turlarni asrash uchun qat'iy ekologik me'yorlarga amal qilish talab etiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy cheklorlar. Hududda turizm sohasida malakali kadrlar yetishmaydi, shu sababli gid va servis xodimlarini tayyorlash dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalishda "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti va Termiz davlat universiteti hamkorlikda kadrlar tayyorlash ishlarini olib bormoqda. Shuningdek, hududning yirik shaharlardan uzoqligi, transport xarajatlarining yuqoriligi hamda marketing va axborot yetishmovchiligi sayyohlarni jalb etishni qiyinlashtirmoqda.

**Xulosa.** Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududning murakkab relyef tuzilishi, tog' va tog' oldi landshaftlarining xilma-xilligi, suv omborining mavjudligi hamda iqlimiy sharoitlarning mavsumiy qulayligi turizmning rekreatsion, ekoturizm va faol dam olish turlarini rivojlantirish uchun muhim tabiiy asos yaratadi.

Shu bilan birga, hududda turizmni jadallashuvi ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator cheklorlar bilan bog'liq ekanini aniqlandi. Jumladan, qiyaliklarda eroziya jarayonlarining kuchayishi, suv sifatining yomonlashuvi, biologik xilma-xillikning qisqarish xavfi hamda antropogen yuklamaning ortishi turizmni rejasiz rivojlantirish holatlarida ekologik barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan esa infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, transport qulayligining cheklanganligi va mahalliy aholining turizm faoliyatiga to'liq jalb etilmaganligi hudud turistik salohiyatidan samarali foydalanishga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Hududni funksional jihatdan zonalariga ajratish, ekologik sig'imni hisobga olish, suv va yer resurslarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini inobatga olish barqaror turizmni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR

1. Avezov M., Ismatullayev K. Sariosiyo tumani tuproqlarining meliorativ holati va iqlim o'zgarishi davrida ulardan oqilona foydalanish imkoniyatlari // «ACTA NUUZ». – 2025. – T. 3. – №. 3.2. – C. 202-205.
2. Cooper C. 2. Lakes as Tourism Destination Resources. In: Hall C., Härkönen T (ed.) Lake Tourism: An Integrated Approach to Lacustrine Tourism Systems. Bristol, Blue Ridge Summit: Channel View Publications; 2006. p.27-42. <https://doi.org/10.21832/9781845410421-005>
3. Doskenova B, Saduova A, Saduov M, et al. Assessment of environmental pollution and health risks across urban-rural gradients. Journal of Ecological Engineering. 2026;27(1):98–111. doi:10.12911/22998993/209413.
4. Eshqarayev U., Jumaniyazov F., Akhunov M., Tuxtayeva M., Ziyadulloeva M., Avezov M. Safeguarding global water resources: Innovations for efficient utilization // Procedia Environmental Science, Engineering and Management. - 2025. - Vol. 12, No. 3. - P. 879 - 886.
5. Gössling, S., Peeters, P., Hall, C. M., Ceron, J. P., Dubois, G., Lehmann, L. V., & Scott, D. Tourism and water use: Supply, demand, and security. An International Review, Tourism Management, 2012, Vol. 33(1), pp. 1 - 15. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2011.03.015>
6. Hall C.M., Page S.J. Tourism and water: Interrelationships, impacts and challenges. Channel View Publications, Bristol, 2014. – 320 p.
7. Ho L, Goethals P. Sustainability of Lakes and Reservoirs: Multiple Perspectives Based on Ecosystem Services. Water. 2021; 13(19):2763. <https://doi.org/10.3390/w13192763>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi 332-son "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
9. Power generation on Tupalang River to increase. [www.President.uz](http://www.President.uz), 30.04.2019.
10. Ravshanov Sh., Xursanov D. et al. Spatial analysis of ecotourism resource potential in the mountainous regions of Surkhondarya, Uzbekistan // GeoJournal of Tourism and Geosites, 2025. (DOI: 10.30892/gtg.61349-1559) [ivysci.com/ivysci.com](http://ivysci.com/ivysci.com).
11. Surkhondarya Region: Using Tourist Potential // Journal of Diplomatic World. Bryussel, 2021. <http://yumpu.com/yumpu.com>.
12. Surxondaryo viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari. – Termiz: 2024.
13. Xamrakulova, X. Project-based marine biodiversity education to improve ocean literacy and conservation attitudes among secondary students / X. Xamrakulova, Z. Mirzayeva, D. Shabbazova, A. Sabirov, Z. Rasulova, B. Ismoilov, M. Avezov // NESciences. - 2026. - Vol. 11, No. 1. - P. 211-220. - DOI: 10.28978/nesciences.261015.
14. Аvezов М., Эльмуратова А. Возможности использования туристического потенциала для устойчивого развития малых территорий с аридным климатом (на примере Каттакурганского района Узбекистана). Geography and Sustainable Development. 2026, 1(1), 6–17. <https://doi.org/10.31489/3106-9649/2025-1-1.GSD/6-17>
15. Усманов И.А., Ходжаева Г.А., Мусаева А.К., Махмудова Д.И., Машрапов Б.О. Оценка качества воды Туполангского водохранилища с целью использования для водоснабжения // Экология и водное хозяйство. - 2020. - № 1 (4).